

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOY SHARTNOMANI JORIY QILISH
MEXANIZMLARI

Shodiboyeva Sarvinoz Dilshodovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti 1-bosqich 110-guruh talabasi.
sarvinozshodiboyeva@gmail.com

Negmatov Isoqjon

Ilmiy rahbar Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasini mudiri.
n-isoq@samdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15521952>

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy shartnoma tushunchasining nazariy asoslari, uning tarixiy shakllanishi va zamonaviy davlat boshqaruvidagi o'rni yoritilgan. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy shartnoma tamoyillarini hayotga tadbqiq etish yo'llari, mavjud islohatlar, normativ-huquqiy asoslar va fuqorolik jamiyatiga rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy shartnoma, fuqorolik jamiyati, davlat boshqaruvi, O'zbekiston, islohatlar, hamkorlik, ijtimoiy barqarorlik

Abstract. The article describes the theoretical foundations of the concept of social contract, its historical formation and its role in modern state administration. Ways of implementing the social contract in the Republic of Uzbekistan, existing reforms, legal frameworks and the impact on the development of civil society are analyzed

Key words: Social contract, civil society, public administration, Uzbekistan, reforms, cooperation, social stability

Аннотация. В статье описаны теоретические основы понятия общественного договора, его историческое формирование и роль в современном государственном управлении. Анализируются пути реализации социального контракта в Республике Узбекистан, существующие реформы, законодательная база и влияние на развитие гражданского общества.

Ключевые слова: Общественный контракт, гражданское общество, государственное управление, Узбекистан, реформы, сотрудничество, социальная стабильность.

Kirish

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli siyosiy, ijtimoiy va huquqiy islohatlar fuqorolik jamiyatining rivojlanishi yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Bu borada ijtimoiy shartnoma konsepsiyasi davlat va fuqorolar o'rtasidagi munosabatlarni yangicha yondashuv asosida shakllantirish imkonini bermiqda.

Asosiy qism

"Ijtimoiy shartnoma" nazariyasi ilk bor XVII-XVIII asrlarda Gobbs, Lokk va Russo [5] kabi g'arb faylasuflari tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko'ra, fuqorolar o'z xavfsizligi va farovonligi evaziga ayrim erkinliklarini davlatga topshiradi, davlat esa ularga huquq va erkinliklarini kafolatlaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatda davlatning yetakchi roli saqlanib qolgan bo'lsada, keyingi yillarda ayniqsa, 2017-yildan boshlab [2] davlat boshqaruvi sohasida ochiqlik, ishtirokiga asoslangan yondashuvlar shakllandi.

2017-yil "Harakatlar strategiyasi" [2] e'lon qilindi, bunda fuqorolarning manfaatlari birinchi o'ringa chiqdi.

2021-2022-yillar "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida "Inson qadri uchun" degan tamoyil asosida ijtimoiy munosabatlarga e'tibor berildi.

2022-yil "Fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" [4] qabul qilindi.

2023-2024-yillar Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, fuqorolarning ishtirokini kengaytirdi [6] va shaffoflikni ta'minladi.

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy shartnomani amaliyotga joriy etish uchun quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Huquqiy ba'za mustahkamligi:

Konstitutsiyaviy islohatlar (2023) orqali inson huquqlari va ijtimoiy himoya kafolatlari kuchaytirildi.

2. Fuqorolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash: NNT lar, fuqorolik tashabbuslari va jamoatchilik kengashlari faoliyatining kengashlari.

3. ijtimoiy sheriklik: Davlat va NNT lar, tadbirkorlar va aholining ijtimoiy loyihalarda hamkorligi.

4. Raqamli boshqaruv va ochiqlik: My.gov.uz, Open budget.uz kabi platformalar orqali aholining bevosita ishtirokini ta'minlash. "Open budget" tizimi orqali fuqorolar o'z hududlari uchun mablag'larning qanday ajratilganligini ko'rishi va taklif berishi mumkin." Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali 300 dan ortiq xizmatlar onlayn shaklda taqdim etiladi.

5. Jamoatchilik nazorati va oshkorlik 2018-yil "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Har bir sohada jamoatchilik eshituvlari yo'lga qo'yilmoqda (budget, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekalogiya va boshqalar).

6. Ta'lim va ma'rifiy targ'ibot ishlari: Maktab va oliy o'quv yurtlarida fuqorolik jamiyati asoslari, huquqiy ongni oshirish darslari olib borilmoqda. Televidiniya va internet orqali fuqorolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishiga oid ko'rsatuvlar ishlab chiqilmoqda.

7. Mmonitoring va baholash tizimi: Ijtimoiy shartnoma bajarilishi ustidan mustaqil monitoring tizimi joriy etilishi zarur.

Xulosa

O'zbekistonda ijtimoiy shartnoma g'oyasi bosqichma-bosqich, lekin izchil tarzda amaliyotga joriy etilmoqda. Davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, o'zaro majburiyatlar asosida hamkorlik qilish, ochiqlik va javobgarlikni ta'minlash orqali haqiqiy fuqorolik jamiyatga asoslangan boshqaruvni shakllantirish mumkin bo'ladi

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Adolat" nashriyoti, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar Strategiyasi"

3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi Murojaatnomasi “Yangi O`zbekiston- yangi islohatlar”
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PQ-289 son qarori “Fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi to`g`risida”
5. Xaydarov SH (2020) Davlat va jamiyat boshqaruvi: nazariya va amaliyot Toshkent “Yangi asr avlodi” [5]
6. My.gov.uz va Open budget.uz rasmiy veb-saytlari (2023-2024) [6]